

Raqamli Iqtisodiyot Sharoitida Budget Tashkilotlari Moliyaviy Nazorat Holatining Tahlili

Abdunazarov S. A.

Jizzax politexnika instituti dotsenti
(Jizzax, O'zbekiston)

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasidagi budget tizimi ijrosi hisobi va nazorati jarayonini tashkil etishning dolzarb masalalari hamda ilmiy va uslubiy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, maqolada budget tizimi funksiyalari nazoratini avtomatlashtirish bir necha bosqichni o'z ichiga olagan va bosqichlarni izchil amalga oshirish pul resurslari harakatini nazorat qilish imkoniyatini tug'diruvchi tizimni yaratish imkoniyatlari tahlili, O'zbekiston Respublikasining «Budget tizimi to'g'risida»gi qonuni va nazoratini tashkil etish va faoliyati mexanizmiga doir iboralar, tushunchalar va tahlillar keltirilgan.

Kalit so'zlar: budget, budget nazorati, budget taqchilligi, dotatsiya, davlat nazorati, daromadlar va xarajatar smetasi.

Davlat budgetining barqarorligi mamlakat iqtisodiyoti va eng avvalo, uning ijtimoiy sohalari holatini xarakterlaydigan eng muhim ko'rsatkichlardan biridir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning III-bob, Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari, 3.1. bandida Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish: "Xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilganini saqlab qolgan holda, Davlat budgetining barcha darajalarida mutanosiblikni ta'minlash, mahalliy budgetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan budgetlararo munosabatlarni takomillashtirishni oldimizga qo'ygan katta maqsadlardan biri qilib olishimiz zarurdir"¹

2022-yildan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti xarajatlarining samaradorligini oshirish, budget qonunchiligi buzilishining profilaktikasini kuchaytirish va masofaviy moliyaviy nazoratni kengaytirish, shuningdek, davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish maqsadida: Hisob palatasi, Iqtisodiyot va Moliya vazirligi, vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlariga birinchi navbatda budget qonunchiligi buzilishining profilaktikasiga alohida e'tibor qaratish, jumladan: budget tashkilotlarida ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarning to'g'ri hisoblanishi, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritilgan obyektlarda amalga oshirilayotgan qurilish ishlarini monitoring qilish va ularda nazorat tadbirlarini o'tkazish, budget tizimi budgetlaridan to'lanayotgan subsidiyalarning manzilliligini va samaradorligini baholash, davlat xaridlarida qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini nazorat qilish, davlat qarzi va grantlar hisobiga amalga oshirilayotgan loyihalarning natijadorligini o'rganish" vazifalari yuklatildi.

Mustaqil davlatchiligimizning iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash maqsadida qo'yilgan qadamlardan biri – budget tizimi tuzilishi va uni boshqarish, budgetlar ijrosi nazorati tartibini belgilovchi "Budget

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-Illova 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi// O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. Toshkent, 2017 - № 6 (766). 32-b;

tizimi to‘g‘risida”gi Qonunda ham O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va boshqa moliya organlari budjet ijrosi nazorat qilinishi chog‘ida bir qator tadbirlarni amalga oshirishlari belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjetining tarkibi:

- ✓ Davlat budjeti;
- ✓ davlat maqsadli jamg‘armalarining budjetlari;
- ✓ O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan quyidagilar moliyalashtirilishi yoki mablag‘lar olishi mumkin:

Budjet tashkiloti – davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda davlat hokimiyati organlarining qaroriga ko‘ra tashkil etilgan, Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan saqlab turiladigan tashkilotlar. Budjet tashkilotlarini moliyalashtirish shartlari va ularning budjet hisobini yuritish tartibi budjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Budjet mablag‘lari oluvchi – davlat budjetidan va davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlaridan mablag‘lar oladigan yuridik yoki jismoniy shaxs budjet mablag‘lari oluvchidir.

Budjet mablag‘lari oluvchi budjet tashkiloti maqomiga ega bo‘la olmaydi.

Budjet mablag‘lari oluvchini Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg‘armalari budjetlari mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish shartlari budjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Hozirgi sharoitda budjet mablag‘laridan foydalanishni nazorat qilish ham budjetdan ajratiladigan xarajatlarni mablag‘ bilan ta‘minlash jarayonida ham budjet tashkiloti tegishli xarajatlarni qilgandan keyin amalga oshiriladi.

Hujjatli tekshiruvlar bevosita budjet tashkilotining o‘zida o‘tkaziladi. Bunda xarajatlar smetasi, buxgalteriya va statistik hisobotlar, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha budjet bilan hisob-kitoblar, boshqa moliyaviy hujjatlar o‘rganiladi. Nazorat organlari soliqqa tortish ob‘ektlarini yashirish yoki vositalarni noqonuniy ishlatish haqida guvohlik beruvchi hujjatlarni, agar ularni saqlash kafolatlanmagan bo‘lsa, ya‘ni almashtirib qo‘yilishi yoki yo‘q qilinishi mumkin bo‘lsa, tortib olish huquqiga ega.

Budjet tashkilotlarining asossiz sarflari, kamomadlar va ular ustidan nazorat haqida gaplashsak, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati departamenti va uning hududiy boshqarmalari tomonidan joriy yilning 1-yarim yilligida olib borilgan nazorat tadbirlari natijasida ayrim budjet muassasalari tomonidan budjet mablag‘larini sarflanishida tizimli ravishda budjet qonun buzilish holatlariga yo‘l qo‘yilayotganligi aniqlandi.

Xalq ta‘limi vazirligi tizimidagi umumta‘lim maktablarida haqiqatda ishga kelmagan va xizmat vazifasini bajarmagan xodimlarga yoki umuman ishlamaydigan fuqarolar nomiga ish haqi hisoblanishi homiladorlik va tug‘ish nafaqalarini, shuningdek mehnat ta‘tili, mukofot va moddiy yordam mablag‘larining asossiz hisoblanishi va to‘lanishi natijasida budjet mablag‘larini noqonuniy sarflanishiga yo‘l qo‘yilgan.

Jumladan, Toshkent tuman tibbiyot birlashmasida avans to‘lovlarini ish haqidan ushlamaslik, ortiqcha mukofot pullarining hisoblanishi va shifokorlar tomonidan bajarilmagan ish uchun ish haqi hisoblanishi natijasida **148,2** mln.so‘m budjet mablag‘i asossiz sarflangan. Qo‘qon shahar Tibbiyot birlashmasida xodimlarga ish haqi, mehnat ta‘tili va boshqa turdagi ish haqiga tenglashtirilgan to‘lovlarini shtatlar jadvali va tarifikatsiya ro‘yxatida ko‘rsatilgan miqdorlarga nisbatan ortiqcha va amalda ishlamagan kunlari uchun hisob-kitoblarni noto‘g‘ri amalga oshirilishi natijasida **119,8** mln.so‘m ortiqcha to‘lovlarga yo‘l qo‘yilgan.

Mirobod tuman tibbiyot birlashmasida bosh hisobchi tomonidan birlashmada ishlamagan yoki o‘tgan yillarda ishdan bo‘shab ketgan 4 nafar xodimlarga ish haqi hisoblanib, ularning nomiga ochilgan bank plastik kartochkalariga o‘tkazish yo‘li bilan jami **87,1** mln.so‘m to‘lab yuborilgan.

Uchqo'rg'on tuman Davlat sanitariya epidemiologiya nazorat markazi tomonidan budget muassasalarida ishlovchi xodimlarga ko'rsatilgan 75,6 mln.so'm miqdoridagi pullik xizmat haqlari muassasa hisob-raqamiga kirim qilinmagan. Farg'ona shahar Davlat sanitariya epidemiologiya nazorat markazida birlamchi hujjatlarni o'zgartirish yo'li bilan 29 mln.so'm naqd pul mablag'lari kirim qilmasdan boshqa maqsadlarga sarflab yuborilgan.

Tuman (shahar) Obodonlashtirish boshqarmalarida o'tkazilgan nazorat tadbirlarida budget mablag'larini asossiz o'zlashtirish, noqonuniy sarflash, tovar moddiy qiymatliklar kamomadiga yo'l qo'yish, bajarilmagan ishlarni qo'shib yozish holatlariga yo'l qo'yilganligi aniqladi, jumladan: Kattaqo'rg'on tuman Obodonlashtirish boshqarmasi bosh hisobchisi tomonidan 373,5 mln.so'm budget mablag'ini o'zining va 2 nafar qabriston nazoratchilarining plastik kartochnasiga asossiz o'tkazib yuborilgan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati departamenti va uning hududiy boshqarmalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-oktyabrdagi 799-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Haq to'lanadigan jamoat ishlarini tashkil qilish tartibi to'g'risida nizom" talablari asosida haq to'lanadigan jamoat ishlari uchun ajratilgan mablag'larni maqsadli sarflanishi yuzasidan nazorat ishlari olib borilmoqda.

Budget tashkilotlarida moliyaviy nazorat tahlili to'g'risida xulosa qilsak, budget tashkilotlari xodimlariga ish haqi hisoblash va ulardan ushlanmalarni to'g'ri va o'z vaqtida davlat budjeti va maqsadli jamg'armalariga o'tkazish yuzasidan bir qancha qonunbuzarlik holatlari aniqlanib mas'ul shaxslarga nisbatan esa qonuniy tartibda chora ko'rilganligi haqida yuqorida fikr almashdik. Xo'sh budget tashkilotlarida moliyaviy nazoratni to'g'ri tashkil etish maqsadida qanday choralar ko'rmoq lozim. Bu haqda quyidagi takliflarni ilgari surmoqchimiz:

1. Budget tashkilotlari budget hisobining xalqaro standartlari talablari asosida hisob va hisobot tizimini tashkil etish;
2. Budget tashkilotlarining moliyaviy holati va xarajatlar smetasi to'g'risidagi hisobotlarni o'z vaqtida to'g'ri tuzishi ustidan ta'sir choralarini kuchaytirish bu orqali budget tashkilotlari rahbarlar zimmasiga yuklatiladigan moliyaviy masalalar bo'yicha barcha o'tkazmalarga jiddiy choralar ko'rilishi;
3. Budget tashkilotlarida moliyaviy nazoratni tashkil etishda talab etiladigan birlamchi hujjatlar va ular orqali budget hisobotlarining to'g'ri tuzilganligi haqida xulosa, tekshiruv natijalari, tekshiruv hujjatlarining barchasi ob'ektiv va sub'ektiv masalarni keltirib chiqarmaslik tamagirlikni oldini olish uchun elektron tarzda yuritilishi va doimiy nazorat qilinishidir.

Davlat budjetini ijrosini nazorat qilish bu albatta ajratilayotgan pul mablag'larining samarali va joy joyiga borishini ta'minlovchi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Nazorat organlari faoliyatini tubdan o'zgartirish, ularni malakasini yetarli darajada oshirish orqali bu yo'lda yana ham mustahkam qadamlar tashlay olish mumkin.

Budget hisobotlari va uni nazorat qilish mexanizmlarini qo'llash yanada yuqori sifatli moliyaviy hisobotlarni tuzishga shuningdek davlat sektori faoliyati natijalarini baholashga katta imkoniyat yaratadi, budget mablag'larining samaradorligini oshiradi, budgetga moliyaviy hisob va statistik hisobotlarni yuqori darajada integratsiyalashuvini ta'minlaydi, davlat budjeti mablag'larini aniq maqsadlar va rejalar yo'lida sarf qilish va uni yetarlicha tahlil qilish bu albatta mamlakatning iqtisodiy salohiyatini yanada mustahkamlash imkonini berishi tabiiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Gaybullayevna, R. S. ., & Musurmangulov. (2024). THE IMPORTANCE OF TIME MANAGEMENT IN ENSURING EFFICIENCY IN CONSTRUCTION. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 3(1), 28–31.

2. Gaybullayevna, R. S. (2023). THE STATE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY: PROBLEMS AND SOLUTIONS. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(12), 38-42.
3. Sharifa, R., & Piyos, T. (2023). PRINCIPLES OF SCIENTIFIC MANAGEMENT IN MANAGEMENT. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(16), 1097-1100.
4. Sharifa, R., & Sayyora, M. (2023). HISTORY OF EMERGENCE OF MANAGEMENT AND ITS PLACE TODAY. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(16), 1093-1096.
5. Sharifa, R. (2023). DIRECTIONS FOR INCREASING INVESTMENT ATTRACTIVENESS IN REGIONS. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(16), 1088-1092.
6. Sharifa, R., & Nozima, T. (2023). QUALITY MANAGEMENT IN COMPETITIVE CONDITIONS IS THE MAIN FACTOR OF ENTERPRISE SUCCESS. *SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 2(20), 200-203.
7. Sharifa, R., & Mahliyo, K. (2023). ORGANIZATIONAL STRUCTURE OF ENTERPRISES AND THEIR APPEARANCES. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(5), 77-83.
8. Gaybullayevna, R. S. (2023). WOMEN'S ENTREPRENEURSHIP IS A FACTOR OF INCREASE IN OUR COUNTRY'S ECONOMIC WELFARE AND SOCIAL DEVELOPMENT. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(5), 73-76.
9. Gaybullayevna, R. S. (2023). MODERN FUNDAMENTALS OF FINANCIAL MANAGEMENT OF INVESTMENT ACTIVITY. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(5), 51-54.
10. Gaybullaevna, R. S. (2023). Methods for Assessing the Economic Efficiency of Investments in Construction. *European Journal of Higher Education and Academic Advancement*, 1(1), 95-98.
11. Gaybullaevna, R. S. (2023). Construction Industry in Uzbekistan Is an Important Priority Network of the National Economy. *Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress*, 2(3), 69-71.
12. Qamarov Asadbek Zafar o'g'li, & Rasulova Sharifa G'aybullayevna. (2023). BIZNESINGIZ UCHUN SAMARALI MARKETING STRATEGIYALARINI QANDAY YARATISH MUMKIN. *Scientific Impulse*, 2(14), 305-312.
13. Gaybullaevna, R. S. (2023). Economic Efficiency of Investing in Construction. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 5(3), 94-97.
14. Расулова, Ш. Ф. (2021). ЎЗБЕКИСТОНДА БАНДЛИК МУАММОСИ. ИШСИЗЛАРНИ ИЖТИМОЙ ҲИМОЯ ҚИЛИШ. *Global Science and Innovations: Central Asia (см. в книгах)*, 3(7), 22-25.
15. Расулова, Ш. Г. (2020). ПРИВЛЕЧЕНИЕ ИНВЕСТИЦИЙ. *Экономика и социум*, (2 (69)), 316-319.
16. Rasulova, S. G., & Obidova, F. Y. (2019). ISSUES OF SMALL BUSINESS DEVELOPMENT. *Theoretical & Applied Science*, (9), 426-429.
17. Расулова, Ш. Г. (2019). ВАЖНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕР ПО ПОВЫШЕНИЮ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (3-8), 95-100.
18. Rasulova, S., & Jabborova, Z. (2019). PRINCIPAL DIRECTIONS ON THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP. *International Finance and Accounting*, 2019(3), 18.
19. Расулова, Ш. Ф. (2019). ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ПОЛИТИКА ГОСУДАРСТВА И ПОВЫШЕНИЕ ЕЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ, НАПРАВЛЕННЫЕ НА ПОВЫШЕНИЕ

ЭКОНОМИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ. *Актуальные научные исследования в современном мире*, (3-8), 90-95.

20. Якубов, С. Ф., Гафуров, А. Т., & Расулова, Ш. Г. (2015). Вопросы активизации деятельности коммерческих банков в финансировании инвестиций. *Молодой ученый*, (3), 551-556.